

**YANGI O‘ZBEKISTONDA GOSPITAL PEDAGOGIKANING
HUQUQIY ASOSLARI**
**LEGAL FOUNDATIONS OF HOSPITAL PEDAGOGY
IN THE NEW UZBEKISTAN**
**ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ГОСПИТАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ
В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

Norimonova Gulmira Ulug‘bek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va

huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida gospital pedagogika tushunchasi, uning dolzarbliji va amaliyotga joriy etilish zaruriyat ekanligi yoritilib beriladi. Gospital pedagogika-bu sog‘lig‘i tufayli uzoq muddat davolanish muassasalarida qolishga majbur bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim tizimdir. Maqolada ushbu pedagogik yondashuvning xalqaro tajribalari bilan bir qatorda, O‘zbekistonda uni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy-me’yoriy asoslar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi qonun hamda Prezident farmon va qarorlari haqida so‘z yuritiladi.

Abstract: This article discusses the New Uzbekistan Hospital Pedagogy Review, its effectiveness and the need for its implementation in practice. Hospital pedagogy is an important system for ensuring the right to education of children who are forced to remain in free access for a long time due to their health. The article, along with international experience in this pedagogical field, discusses the legal and regulatory framework aimed at its development in Uzbekistan, the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Law "On Education", the Law "On the Rights of Persons with Disabilities", as well as decrees and resolutions of the President.

Аннотация: В статье обсуждается Новое исследование больничной педагогики Узбекистана, его эффективность и необходимость его внедрения на практике. Больничная педагогика является важной системой предоставления услуг по обеспечению права на образование детей, которые по состоянию здоровья вынуждены длительное время находиться в учреждениях. В статье рассматривается, наряду с международным опытом в данной педагогической сфере, нормативно-правовая база, направленная на ее развитие в Узбекистане, Конституция Республики Узбекистан, Закон «Об образовании», Закон «О правах

лиц с ограниченными возможностями», а также указы и постановления Президента.

Kalit so‘zlar: Gostipal, Yani O‘zbekiston, ta’lim huquqi, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, Inklyuziv ta’lim, ta’lim, huquq, pedagogik yondashuv.

Keywords: Gostypal, New Uzbekistan, education, health, social protection, inclusive education, education, law, pedagogical approach.

Ключевые слова: Гостипал, то есть Узбекистан, образование, здравоохранение, социальная защита, инклюзивное образование, образование, право, педагогический подход.

Kirish: Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha sohalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston g‘oyasi asosida shakllanayotgani, ijtimoiy-siyosiy muhitda inson manfaatlari, uning huquqlari va erkinliklarini ta’minalash davlat siyosatining ustuvor vazifalidan biriga aylanib ulgurgan. Shu sababdan, sog‘lig‘i sababli uzoq muddatli yoki doimiy davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar ta’limi ham e’tibordan chetda qolgani yo‘q, albatta. Bu esa, Gospital pedagogika ya’ni sog‘liqni saqlash muassasalarida yoki uy sharoitida ta’lim olishga majbur bo‘lgan bolalar bilan ishlash tizimidagi ahamiyatini yanada oshirmoqda. Gospital pedagogika bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki huquqiy, psixologik va ijtimoiy yondashuvlarni o‘z ichiga olgan kompleks soha sifatida qaralmoqda. Davlatimiz tomonidan bu yo‘nalishga alohida e’tibor qaratilib, qonuniy asoslar shakllantirib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risidagi”gi Qonun, “Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun va BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi va boshqa shu kabi xalqaro hujjatlar asosida gospital pedagogikasining huquqiy bazasi mustahkamlanmoqda.

Yangi O‘zbekistonda bu tizimni rivojlantirish, huquqiy jihatdan asoslash orqali ta’limning inklyuzivligi ta’minalmoqda. Har bir bolaning, hattoki sog‘lig‘i yomon bo‘lganlarining ham, to‘laqonli ta’lim olish huquqiga ega ekanligi ta’lim siyosatining bosh mezoni sifatida qaralmoqda. Shu sababdan, gospital pedagogikaning huquqiy asoslarini chuqr o‘rganish va uni amaliyatga tatbiq etish orqali uni yanada takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib kelmoqda.

Asosiy qism: Gostipal pedagogika- bu sog‘liqni saqlash muassasalarida, ya’ni shifoxalarda davolananayotgan bolalarga ta’lim va tarbiya berishga qaratilgan maxsus pedagogik faoliyat. Bu yo‘nalish O‘zbekistonda yangi bo‘lsada, rivojlangan davlatlarda uzoq yillardan beri qo‘llanib kelinmoqda. Bu kabi davlatlarga: Germaniya, Fransiya, Italiya va Yaponiya kabilar misol bo‘la oladi. Gospital pedagogika bolalarning sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolar tufayli ta’limdan uzilib qolmasligi, ularning ma’naviy-ruhiy holatini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiylashuv jarayonini

uzluksiz davom ettirishga xizmat qiladi. Prezident Shavksat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilsayotgan islohotlar jarayonida ijtimoiy adolat, inklyuzivlik, inson qadri, ta’limning uzliksizlilikabi tamoyillar markaziy o’ringa cgiqib ulgurgan. 2022-yildan boshlab sog‘lijni saqlash va ta’lim tizimi o’rtasidagi integratsiya kuchaytirilib, tibbiyot muassasalarda bolalarga ta’lim berish tajriblari yo‘lga qo‘yila bishladi. Bu kabilar gospital pedagogika bo‘yicha huquqiy asoslarni ishlab chiqarishni keltirib chiqardi.

Yangi O‘zbekistonda gospital pedagogika rivojlanishining huquqiy asoslari quyidagi qonun va normativ hujjatlar bilan mustahkamlangan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- 41-moddasida har bir fuqaroga ta’lim olish huquqi kafolatlangan. Bu huquq bola kasalxonada bo‘lsa ham, ta’limdan mahrum qilinmasligini anglatadi.

2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun-ta’limning inklyuziv va uzluksiz bo‘lishi, barcha qatlamlar uchun teng imkoniyat yaratilishini ta’minkaydi.

3. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya- O‘zbekiston ushbu xalqaro hujjatni qabul qilgan. Konvensiyada bolalarning sog‘lig‘i, ta’lim olishi va ijtimoiy himoyasi eng muhim ustuvorliklari sifatida e’tirof qilingan.

4. Milliy taraqqiyot strategiyasi(2022-2026-yillar). Unda ta’lim tizimining inklyuziviligini oshirish, bolalarning individuallashtirilgan ehtiyojlariga moslashgan ta’lim xizmatlarini joriy etish belgilangan.

5. Sog‘lijni saqlash va Xalq ta’limi vazirliklari o’rtasidagi hamkorlik memorandumi-bu hujjat orqali kasalxonlarda pedagogik xizmat ko‘rsatish huquqiy jihatdan tan olingan.

Hozirgi paytda, Toshkent shahridagi ba’zi yirik bolalar shifoxonalarida sinov tariqasida gospital sinflari ochilgan. Bu sinflarda maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan o‘qituvchilar bolalarning salomatligi, emotsiyal holati va o‘qish imkoniyatlarini inobatga olgan holda dars mashg‘ulotlarini olib borishyapti. Shu bilan birga, kasal bolalar uchun psixologik-pedagogik yordam, ijtimoiy moslashuvga yordam beruvchi dasturlar ishlab chiqilmoqda. Bu kabi faoliyatlar tibbiyot muassasi va pedagogik kadrlar hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Gospital pedagogikaning huquqiy asoslari shakllanayotgan bo‘lsa ham, hali to‘liq yo‘lga qo‘yilgan tizim emas. Quyidagi muammolar mavjud:

1.Malakali gospital pedagoglar yetishmasligi;

2.Tibbiyot muassasalarida pedagogik faoliyat yuritishga to‘sinqinlik qilayotgan buyrokratik to‘siqlar;

3. Maxsus darsliklar va metodik qo‘llanmalarning kamligi;

4. Moliya va infratuzilma bilan bog‘liq masalalar. Bu kabi muammolarni hal qilish uchun: Gospital pedagogika bo‘yicha o‘quv kurslarini joriy etish ; Sog‘lijni saqlash va ta’lim sohalarini integratsiyalashgan tizimga o‘tkazish; Normativ hujjatlarni

takomillashtirish; Qonunchilikka alohida “Gospital pedagogika” bo‘yicha qo‘s Shimcha va bandlarni kirirish lozim bo‘ladi.

Rossiya ta’lim akademiyasining Rivojlanish fiziologiyasi instituti ma’lumotlariga ko‘ra, mакtab o‘quvchilarining 60 foizidan ortig‘i sog‘lig‘ida muammolarga duch kelgan. So‘nggi yillarda amalga sog‘lom bolalar soni 75foizdan 30foizgacha kamaydi. 1919-yildan boshlab, 15dan ortiq mamlakatlarni birlashtirgan “Gospital Pedagogika Assotsiyasi” tashkil qilingan. Nogiron shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kofolatlash maqsadida BMT 1975-yilda -“Nogiron shaxslar to‘g‘risida”gi Deklaratsiyani qabul qiladi.

Hozirda “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasida 81 nafar maktabgacha yoshdagи bolalar va 721nafar maktab yoshidagi o‘quvchilar mavjud. Bu yerda dars mashg‘ulotlari o‘zbek va rus tillarida, 12ta fandan olib boriladi.

Xulosa: Ushbu maqoladan xulosa shuki, Bugungi Yangi O‘zbekistonda gospital pedagogikaga katta e’tibor qaratilmoqda. Yurtimizda sog‘liqni saqlash va ta’lim tiziming integratsiyasi orqali sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolarga duch kelgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlashga oid huquqiy asoslar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mening fikrimcha, Gospital pedagogikaning rivoji insonparvarlik tamoyillariga asoslangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ajralmas bo‘lagi sifatida e’tirof qilinishi lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. <https://uz.wikipedia.org>
3. hpps://uzedu.uz
4. hpps://uza.uz
5. Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika darslik. O‘quv-uslubiy qo‘llanma.-2024